

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Sirdaryo viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 aprel holatiga 833,0 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 3,3 ming kishiga yoki 0,4 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 356,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,7 %), qishloq aholisi soni 477,0 ming kishini (57,3 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2019 yil yanvar-mart

- Aholi soni **3,3 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **4,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- **0,9 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **1,1 mingta nikoh** va **0,3 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Sirdaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar-mart oylarida)



Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(2018-2019 yillar 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	2018 yil	2019 yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Sirdaryo viloyati	818,4	833,0	101,8
Guliston sh.	88,3	89,4	101,2
Shirin sh.	18,5	18,6	100,5
Yangiyer sh.	41,8	42,7	102,2
tumanlar:			
Oqoltin	50,2	51,1	101,8
Boyovut	125,3	127,6	101,8
Guliston	69,3	70,9	102,3
Sayhunobod	74,8	76,0	101,6
Mirzaobod	70,0	71,6	102,3
Sardoba	63,7	64,9	101,9
Sirdaryo	124,1	126,2	101,7
Xovos	92,4	94,0	101,7


*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Boyovut tumanida 127,6 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,3 %ni) va Sirdaryo tumanida 126,2 ming kishini (15,2 %), aksincha eng kam aholi soni Shirin shahrida 18,6 ming kishi (2,2 %) va Yangiyer shahrida 42,7 ming kishini (5,1 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Guliston va Mirzaobod tumanlarida 2,3%ni, Yangiyer shahrida 2,2%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Guliston shahrida 1,2% ni va Shirin shahrida 0,05 %ni tashkil etdi.

Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2019 yil 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)




Demografik holat

Jinsi bo`yicha doimiy aholi sonining bo`linishi (2019 yil 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)

	erkak	ayol
Sirdaryo viloyati	418,2	414,8
Guliston sh.	44,5	44,9
Shirin sh.	9,1	9,5
Yangiyer sh.	21,3	21,4
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	25,7	25,4
Boyovut t.	64,5	63,1
Guliston t.	35,1	35,8
Sayhunobod t.	38,0	38,0
Mirzaobod t.	37,2	34,4
Sardoba t.	33,0	31,9
Sirdaryo t.	62,9	63,3
Xovos t.	46,9	47,1

Hududlar kesimida aholi zichligi (2019 yil 1 aprel holatiga, 1 kv kmga to`gri keladigan aholi)



Demografik holat


Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-mart oylarida 4,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,3 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 2,2 promillega ko'paygan (2018 yilning yanvar-mart oylarida 18,1 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Yangiyer shahrida (19,2 promilledan 21,2 promillega), Oqoltin tumanida (16,0 promilledan 20,8 promillega) va Sirdaryo tumanida (17,5 promilledan 19,9 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Guliston tumanida (18,8 promilledan 17,6 promillega) va Mirzaobod tumanida (19,5 promilledan 19,3 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-mart)



Demografik holat

Sirdaryo viloyati bo`yicha tug`ilganlar soni, kishi (yanvar-mart)


	2018 y.	2019 y.	O`shish sur`ati %da
Sirdaryo viloyati	3627	4169	114,9
Guliston sh.	332	632	190,4
Shirin sh.	62	74	119,4
Yangiyer sh.	219	223	101,8
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	194	262	135,1
Boyovut	580	585	100,9
Guliston	318	307	96,5
Sayhunobod	319	372	116,6
Mirzaobod	300	340	113,3
Sardoba	322	321	99,7
Sirdaryo	527	617	117,1
Xovos	454	436	96,0

Demografik holat

Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-mart oylarida 0,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan minus -0,2 promillega kamaydi (2018 yilning yanvar-mart oylarida 4,6 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayish Guliston shahrida (5,9 promilledan 5,3 promillega) Mirzaobod (4,3 promilledan 3,2 promillega), Sardoba (3,6 promilledan 3,2 promillega) Boyovut (4,5 promilledan 4,0 promillega), tumanlarida kuzatilgan bo'lib aksincha Xovos tumanida (3,5 promilledan 4,1 promillega) o'sish holati kuzatildi.


Vafot etganlar



Erkaklar:
0,5 ming
kishi

Ayollar:
0,4 ming
kishi

Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-mart)



Demografik holat

Sirdaryo viloyati bo`yicha o`lganlar soni, kishi (yanvar-dekabr)


	2018 y.	2019 y.	O`shish sur`ati %da
Sirdaryo viloyati	926	903	97,5
Guliston sh.	135	116	85,9
Shirin sh.	29	17	58,6
Yangiyer sh.	49	57	116,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	55	52	94,5
Boyovut	139	127	91,4
Guliston	82	87	106,1
Sayhunobod	74	77	104,1
Mirzaobod	73	57	78,1
Sardoba	57	51	89,5
Sirdaryo	153	167	109,2
Xovos	80	95	118,8

Demografik holat

2019 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 66,8 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,9 %i o'simtalardan, 4,8 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,1 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,9 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,2 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 7,3 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 38 nafarni tashkil etib, ularning 57,9 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 34,2 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,6 %i tug'ma anomaliyalardan, va 5,3 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



Nikoh. 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,1 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,6 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan barcha hududlarda kamayish kuzatilgan bo'lib asosan eng yuqori kamayish sur'atlari Guliston (84,5 %), Sirdaryo (84,3 %), Sardoba (69,5%), Mirzaobod (95,3 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,3 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Guliston (171,4 %), Xovos (113,0 %) va Sardoba (114,3 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-mart)

	Nikoh tuzganlar	Nikoh koeffitsiyenti
Sirdaryo viloyati	1143	5,6
Guliston sh.	246	11,2
Shirin sh.	25	5,5
Yangiyer sh.	55	5,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	97	7,7
Boyovut t.	146	4,6
Guliston t.	71	4,1
Sayhunobod t.	67	3,6
Mirzaobod t.	82	4,7
Sardoba t.	91	5,7
Sirdaryo t.	145	4,7
Xovos t.	118	5,1

Demografik holat

Hududlar kesimida nikoh ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-mart)

	Ajrim	Ajrim koeffitsiyenti
Sirdaryo viloyati	275	103
Guliston sh.	44	2,0
Shirin sh.	9	2,0
Yangiyer sh.	23	2,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	18	1,4
Boyovut t.	28	0,9
Guliston t.	24	1,4
Sayhunobod t.	22	1,2
Mirzaobod t.	22	1,2
Sardoba t.	16	1,0
Sirdaryo t.	43	1,4
Xovos t.	26	1,1

Sirdaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-mart)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018 y.	2019 y.	O`shish sur`ati %da	2018 y.	2019 y.	O`shish sur`ati %da
Sirdaryo viloyati	1131	1143	101,1	279	275	98,6
Guliston sh.	118	246	208,5	55	44	80,0
Shirin sh.	21	25	119,0	3	9	300,0
Yangiyer sh.	62	55	88,7	21	23	109,5
<i>tumanlar:</i>						
Oqoltin	77	97	126,0	19	18	94,7
Boyovut	165	146	88,5	41	28	68,3
Guliston	84	71	84,5	14	24	171,4
Sayhunobod	80	67	83,8	16	22	137,5
Mirzaobod	86	82	95,3	16	22	137,5
Sardoba	131	91	69,5	14	16	114,3
Sirdaryo	172	145	84,3	57	43	75,4
Xovos	135	118	87,4	23	26	113,0

Migratsiya. 2019 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2,4 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 2,6 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,2 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 0,2 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil yanvar-mart	2019 yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	2,4	2,4
Ko'chib ketganlar	2,6	2,6
Migratsiya saldosi	-0,2	-0,2

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Boyovut tumanida (minus 0,1 ming kishi), Xovos tumanida (minus 0,1 ming kishi) qayd etildi.

